

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

## QADIMGI SIN DAVLATI DAVRIDA XITOY

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Saidova Muxarram**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Bo'ronova Zarnigor**

**Annotatsiya:** Maqola Qadimgi Sin davlati (miloddan avvalgi 221–206 yillar) davridagi Xitoyning siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini tahlil qiladi. Sin imperiyasi birinchi marta Xitoyni birlashtirib, markazlashgan davlat tuzilmasini yaratdi. Bu davrda harbiy, huquqiy va arxitektura sohalarida yirik yutuqlar yuz berdi.

**Kalit so‘zlar:** Sin davlati ,Xitoy birlashish ,Siyosat ,Harbiy texnologiya ,Madaniyat ,Imperiya

Mil.avv. 359–348-yillarda Sin podsholigida vazir Shan Yan islohotlar o‘tkazdi. Bu islohotlarning maqsadi siyosiy markazlashtirish, mamlakatni ma’muriy-hududiy qayta qurish, kuchayib ketgan urug‘-zodagonlarining qudratiga chek qo‘yish, jamoaning o‘zgarishi bilan soliq tizimini tartibga solish edi. Shan Yan butun mamlakat miqyosida yagona qonunchilik va sud tizimini joriy qildi. Garov va yer sotishni qonunlashtirdi. Yer ulushining hajmi cheklanishini bekor qildi. Katta oila birlashmalarini yer egaligiga aralashib, patriarchal xo‘jaliklarni bo‘lishni talab qildi. Eski merosiy unvonlar bekor qilindi. Zodagonlarning yangi darajasi (rangi) ularning davlatga shaxsiy, birinchi navbatda, harbiy xizmatlari uchun beriladigan bo‘ldi. Zodagonlarga shaxsiy qobiliyatiga qarab ma’muriy lavozimlarni egallash huquqi berildi. Bunday mavqega ega bo‘lganlar tegishli belgilangan yer-mulk, qullarga ega bo‘lish huquqiga ega bo‘ldilar.

Tez orada unvonlar sotila boshlandi. Bu qudratli zodagonlarga hokimiyatda yuqori lavozimlarni egallashlari uchun yo‘l ochdi. Shan Yan qo‘sinda zodagonlarning harbiy qudrati asosi bo‘lgan jang aravalari tez harakat qiladigan otliq qo‘sish bilan almashtirdi. Jez qurollar o‘rnini temir qurollar egalladi. Qurol tayyorlash huquqiga faqat davlat ega bo‘ldi. Sin qo‘sining jangovar qobiliyati o‘sdi. Bu islohotlar natijasida Sin davlatining kuchayishi uchun qulay shart-sharoit yaratildi.

Xitoy tarixida ilk bor yerga xususiy mulkchilik huquqi qonuniylashtirildi. Yerni oldi-sotdisiga ruxsat berildi. Katta patriarchal oilalar voyaga yetgan o‘g‘illar soniga qarab 2-3 barobar ko‘p soliq to‘lashlari kerak edi. Shu tarzda xazina boyidi, oilalar bo‘lindi. Davlatning butun hududi okruglarga bo‘lindi, okruglar tumanlarga bo‘lindi. Rayonlar tarixiy shakllangan chegaralarni hisobga olmay tuzildi. Bu mahalliy oqsuyaklar hokimiyatini yo‘qotishga olib keldi. Quyi ma’muriy bo‘linish bir-birini kafolatini olgan 5-10 kishidan iborat guruhgacha bo‘lindi. Bunday guruh a’zolaridan birining qilmishi uchun barcha jazolangan. Kafillikka olish harbiy bo‘linmalarda ham bor edi.

Qonunni har qanday buzish qattiq jazolangan. Xazinani to‘ldirish uchun ayrim xo‘jalik sohalarini davlat monopoliyasiga aylantirildi (tuz qazib chiqarish). Qo‘riq yerlarga ishlov berila boshlandi. Yangi hududlar o‘zlashtirildi. Shan Yan ijtimoiy faollikni rag‘batlantirdi. Zodagonlikning 20 darajasi huzur-halovatda yashashga kafolat bermadi. Agar kimdir harbiy xizmat qilmagan bo‘lsa, zodagonlik darajasi tortib olindi. Aksincha, davlatga harbiy xizmat ko‘rsatgan oddiy odamga zodagonlik darajasi berildi. Natijada davlat xizmatiga qobiliyatli odamlarning kelishiga yo‘l ochildi. Islohotchi vazir keyinchalik davlat xazinasini to‘ldirish uchun zodagonlik darajasini sota boshladi. Shan Yan bir oz vaqt o‘tib, jinoyatda ayblanib, qatl qilindi. Lekin uning islohotlari Sin davlatini kuchaytirdi. Mil.avv. IV asrda boshqa davlatlarda ham davlat

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

hokimiyatini mustahkamlaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni barqaror qiladiganislohotlar o'tkazildi. Amaldor Shan Yanning mil.avv. 350-yillarda o'tkazgan islohoti natijasida Sin davlati qudratli davlatga aylandi. Shu davrdan boshlab Sin hukmdorlari bosqinchilik siyosatini olib bordilar. Qo'shni davlatlarning ichki ziddiyatlari va o'zaro urushlaridan foydalangan Sin vanlari qadimgi Xitoyning barcha davlatlari hududlarini bosib ola boshladilar.

Mil.avv. 246-yil Sin taxtiga 10 yoshli In Chjen chiqdi. Mil.avv. 238-yil yosh podsho Chjen o'ziga qarshi fitnani fosh qildi. Mil.avv. 230-yil asosiy raqib bo'lgan Xan podsholigini, mil.avv. 228–221-yillar oralig'iда boshqa besh podsholiklarni bosib oldi. Mil.avv. 221-yil Shandun yarim orolidagi so'nggi mustaqil davlat Si podsholigi bosib olinib, Xitoy o'z tarixida ilk bor yagona davlatga birlashtirildi.

Sin davlatining poytaxti Syanyan umumxitoy davlati poytaxti deb e'lon qilindi. Sin vani 28 yoshli In Chjen Sin Shixuandi («Sin sulolasining birinchi imperatori») unvonini qabul qildi. U «Bizning avlodimiz vorislik tartibiga ko'ra, Ershi («Ikkinchisi»), San'shi («uchinchisi») va toki o'n minglab avlodlargacha ular abadiy merosxo'r bo'ladilar», deb o'z farmonida tantanali e'lon qildi. Ammo bu davlat bor-yo'g'i 14 yil yashadi.

Sin Shixuandi bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. Shimolga yurish qilib, syunnu qabilalarini Xuanxe havzasidan haydab chiqardi. U Janubiy Xitoy va Shimoliy Ve'tnamga yurish qildi. Qo'shin bu yurishda juda katta talafot ko'rdi. Qadimgi Ve'tnamning Namyue (Namvyet) va Oulo (Aulak) davlatlari rasman bo'ysundirildi xolos. Sin davlatining poytaxti Chyanyan imperiya poytaxtiga aylantirildi.

Sin Shixuandi butun mamlakatda Shan Yan ko'rsatmalarini yuritdi. Sin hududi zodagonlari imtiyozli mavqega ega bo'lib, barcha davlat lavozimlarini egallab oldilar. Ierogif yozuv unifikatsiya qilinib, soddalashtirildi. Barcha to'la huquqli erkin fuqaro uchun qonun bilan «qoraboshlar» nomi belgilandi. Qullar bozori tashkil etildi.

Qadimgi Sin davlati Xitoy tarixida muhim o'rin tutadi, chunki u Xitoyni birinchi marta birlashtirgan imperiya sifatida tarixga kirgan. Sin imperiyasining yaratilishi bilan markazlashgan boshqaruv tizimi, harbiy inqiloblar, va qattiq qonunlar asosida kuchli davlat tuzilmasi shakllandi. Bu davrda qurilgan buyuk infratuzilma, shu jumladan Xitoy devori va qanallar, Xitoyning kelajakdagi madaniy va siyosiy rivojlanishiga asos yaratdi. Sin davlati qisqa vaqt davomida hukmronlik qilgan bo'lsa-da, uning merosi va yaratilgan tizimlar keyingi imperiyalar uchun muhim asos bo'ldi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

ABDUJABBOR KABIROV. QADIMGI SHARQ TARIXI .TOSHKENT 2016

1. RAJABOV RAVSHAN JAHON TARIXI 1 QISM .RAJABOV RAVSHAN TOSHKENT YANGI ASR AVLODI.
2. F.BOYNAZAROV QADIMGI DUNYO TARIXI.TOSHKENT 2002.
3. VSEVOLOD AVDIYEV QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 1964.
4. ANATOLIY SAGDULLAYEV QADIMGI SHARQ TARIXI.
5. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО-ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.

7. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
8. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
9. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
10. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
11. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
12. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
13. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
15. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
16. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
17. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
20. R. Rajabov. Qadimgi Sharq harbiy san'ati . Toshkent .2018.
21. Бобоҷонов, Беҳruz Баҳодир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351